YUZNING O‘RTA SOHASI BAZAL VA YASSI HUJAYRALI KARSINOMALARINI OLIB TASHLASH TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

TDTU Yuz-jag jarrohligi kafedrasi 2-kurs magistratura talabasi
Donoboyev Sh.B.
Ilmiyrahbar: TDTU Yuz-jag jarrohligi kafedrasi dotsenti **Ganiev A.A.**
TXKMRM Onkologiyakafedrasi assistenti **Egamberdiyev S.K.**

Ilmiy yangiligi - Yuzning o‘rta sohasi bazal hujayrali va yassi hujayrali karsinomalar eng ko‘p uchraydigan anatomik hududlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning murakkab anatomik tuzilishi, estetik va funksional jihatdan muhimligi sababli o‘smalarni radikal olib tashlash bilan birga maksimal kosmetik va funksional natijaga erishish zamonaviy onkoxirurgiyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Klassik jarrohlik usullarida retsidivlar, katta hajmli yumshoq to‘qima nuqsonlari, chandiqli deformatsiyalar va funksional buzilishlar yetarlicha yuqori ko‘rsatkichda saqlanib qolmoqda. Shu sababli minimal invaziv va organosparovchi texnologiyalarni amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi-Yuzning o‘rta sohasi bazal va yassi hujayrali karsinomalarini olib tashlash texnikasini takomillashtirish hamda operatsiyadan keyingi estetik va funksional natijalarni yaxshilash.

Ilmiy yangiligi-Tadqiqot davomida yuzning o‘rta sohasi teri malign neoplaziyalarini olib tashlashda o‘smalarning anatomik lokalizatsiyasi va infiltrativ o‘sish xususiyatlarini hisobga olgan holda individual jarrohlik algoritmi ishlab chiqildi.

Intraoperatsion gistologik nazorat va optik kattalashtirish texnologiyalarini kompleks qo‘llash orqali rezeksiya chegaralarining aniqligi oshirildi hamda sog‘lom to‘qimalarni maksimal saqlash imkoniyati yaratildi.

Yuzning o‘rta sohasi nuqsonlarini rekonstruksiya qilishda lokal va regionar flaplarni differensial tanlash algoritmi taklif qilindi.

Operatsiyadan keyingi estetik natijalarni baholash uchun modifikatsiyalangan klinik-estetik mezonlar tizimi ishlab chiqildi.

Material va metodlar

Tadqiqot 2022–2025-yillar davomida yuzning o‘rta sohasi bazal hujayrali va yassi hujayrali karsinomasi bilan davolangan 68 nafar bemorda olib borildi. Bemorlarning yoshi 42 yoshdan 79 yoshgacha bo‘lib, ulardan 39 nafari bazal hujayrali karsinoma, 29 nafari yassi hujayrali karsinoma bilan kasallangan. Barcha bemorlarda quyidagi diagnostik tekshiruvlar o‘tkazildi:

kliniko-vizual tekshiruv; dermatoskopiya; kompyuter tomografiya; ultratovush tekshiruvi; gistologik verifikatsiya. Asosiy guruhda o‘smalarni olib tashlashda takomillashtirilgan organosparovchi texnika, optik kattalashtirish, intraoperatsion frozen-section nazorati hamda individual rekonstruktiv yondashuv qo‘llanildi.Nazorat guruhida esa standart klassik eksiziya usullari bajarildi.

Nuqsonlarni yopishda quyidagi rekonstruktiv usullar qo‘llanildi: birlamchi yopish; nasolabial flap; cervicofacial flap; forehead flap;teri transplantatlari.Operatsiyadan keyingi natijalar quyidagi mezonlar asosida baholandi:retsidivlar chastotasi;jarrohlik chekkalarining tozaligi; estetik simmetriya; yara bitish muddati;funksional buzilishlar mavjudligi; operatsiyadan keyingi asoratlar.

Natijalar

Takomillashtirilgan jarrohlik texnikasi qo‘llangan asosiy guruhda o‘smalarni radikal olib tashlash ko‘rsatkichi sezilarli yuqori bo‘ldi. Intraoperatsion gistologik nazorat tufayli rezeksiya chekkalarida o‘sma hujayralarining saqlanib qolish holatlari kamaydi.

Asosiy guruhda operatsiyadan keyingi retsidivlar 6,4% ni tashkil etdi, nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkich 17,8% ga teng bo‘ldi.

Minimal invaziv disseksiya va optik kattalashtirish texnologiyalari qo‘llanilishi natijasida:

yumshoq to‘qimalar travmatizmi kamaydi;postoperatsion shish darajasi pasaydi;fibroz va qo‘pol chandiqlanish kam kuzatildi. Rekonstruktiv bosqichni individual rejalashtirish natijasida bemorlarning ko‘pchiligida yuz simmetriyasi va estetik kontur qoniqarli tiklandi. Asosiy guruhda yara bitish muddati o‘rtacha 18±2 kunni tashkil etdi, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 24±3 kun bo‘ldi.

Xulosa

Yuzning o‘rta sohasi bazal va yassi hujayrali karsinomalarini olib tashlashda takomillashtirilgan organosparovchi jarrohlik texnikasi yuqori klinik samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

Intraoperatsion gistologik nazorat va optik kattalashtirish texnologiyalarini qo‘llash retsidivlar sonini kamaytirish hamda sog‘lom to‘qimalarni maksimal saqlash imkonini beradi.

Individual rekonstruktiv yondashuv va lokal flaplarning differensial qo‘llanilishi operatsiyadan keyingi estetik hamda funksional natijalarni sezilarli yaxshilaydi.

Takomillashtirilgan texnikaning amaliyotga keng joriy etilishi yuzning o‘rta sohasi malign o‘smalarini davolash.